

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

Xoshimov Jamol Jalolovich

**O'ZBEKLARNING NIKOH
MAROSIMLARI**

Mutaxassislik: 5B 5120300- «Tarix»

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Tarix bakalavri akademik darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar: B.Samadov

Guliston – 2016

MUNDARIJA:

KIRISH....

1 BOB. QALIN TUSHUNCHASI VA UNING HAJMI.....

1.1. Qalinning paydo bo'lish tarixi.....

1.2. Qalinning hajmi.....

2 BOB. O'ZBEKLAR HAYOTIDA QALINNING TUTGAN
O'RNI.....

2.1. Islomda qalinning o'rni va qalin bilan mahr o'rtasidagi farq....

2.2. Qalinni bekor qiluvchi odatlar.....

XULOSA.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

Ilova...

KIRISH

Tarixan tarkib topgan milliy an'ana, urf-odat, rasm-rusm, marosimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qator omillar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday omillardan biri turmush tarzidir. Barcha xalq urf-odatlari, an'ana va marosmilari muayyan tarixiy davrning mahsuli bo'lib, nafaqat moddiy, balki ma'naviy, axloqiy ma'yorlar turmush sharoitining ta'siri natijasida paydo bo'lgan. Vaqt o'tgan sari ular tobora mustahkamlanib, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tib kelgan. Qalinni anashunday odatlardan biriga kiritishimiz mumkin. Qalin-nikoh to'yida qiz uchun kuyov tomonidan beriladigan pul, mol va boshqa beriladigan to'lovdir.

Alohida ta'kidlamoq joizki, urf-odat, marosim, an'ana va udumlar uzoq vaqt davom etgan tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Shuning uchun ham har bir xalqning turmushida uning o'ziga xos belgi va xususiyatlari mavjud. Lekin bu narsalar uzoq vaqt mobaynida vujudga keladi, davr o'tishi bilan ularning ayrimlari turmush amaliyotidan tushib qoladi, ularning o'rniga yangilari paydo bo'lib kamol topib boradi. Kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishi bilan ularning safi va sifati o'sib, o'zgarib boradiyu Abdurauf Fitrat aytganidek, "urf-odatlar ko'plab ilg'or xalq an'analari, xalq donoligi, xalq ijodiyotining makoni. xazinasidir".¹

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida qanchadan-qancha urf-odat va an'analarga, hayot taqozosi tufayli vujudga kelgan marosimlarga ega. Milliy an'ana va urf-odatlar asrlar osha yangicha mazmun kasb etadi. O'z navbatida zamon va davr talabiga xos an'anaviy urf-odatlar zamonlar osha yashab, kelgusi avlodlarga etib

¹ Fitrat A. Oila yoki oilani boshqarish tariblari G' Mas'ul muharrir D.A.Alimova. Tarj. va izohlar muallifi Sh.Vohidov.-2nashr.T., 2000,3-6.

boradi. Kishilarning moddiy va ma'naviyhtiyojlari qondirilishi bilan ularning soni va sifai o'sib, o'zgarib boradi.

Qalin berish odati qadimdan to bugungi kungacha saqlanib qolgan. Qalin faqat o'zbek xalqiga xos bo'lmagan odat hisoblanib, ko'pchilik qalin berish odatiga nima uchun amal qilayotganini, uning nima uchun kerakligini, uning asl mohiyatini aslo o'ylab ham o'tirmaydi. Hozirgi kunda qalin faqat rasmiyatchilik uchun bajariladi. Nima uchun? Nima uchun qalin shuncha qarshiliklarga qaramay, hamon yashab kelmoqda? Qariyb bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan qalinning saqlanish siri nimada?

Mavzuning dolzarbligi. Har bir xalqning o'ziga xos qadimgi milliy an'analari bo'lib, u avloddan avlodga o'tib keladi. Shuning uchun ham rasm-rusum, urf-odatlardan biri qalin berish odati hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

O'rta Osiyo xalqlari kelib chiqishi va tarixiy bir hududda yashashi bilan bir-birlariga bog'langan. Ular bir hududda shakllanganligiga qaramay, o'zlarining o'ziga xos ijtimoiy va etnomadaniy an'alariga, urf-odatlariga, shu bilan birga, oila va nikoh munosabatlarini o'rganganda, odatda, qalin berish masalasiga katta e'tibor berganlar.

O'rta Osiyo xalqlari kelib chiqishi va tarixiy bir hududda yashashi bilan bir-birlariga bog'langan. Ular bir hududda shakllanganligiga qaramay, o'zlarining o'ziga hos ijtimoiy va etnomadaniy an'alariga, urf-odatlariga, shu bilan birga, oila va nikoh munosabatlariga egadrlar. Ko'plab olimlar O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqining oila-nikoh munosabatlarini o'rganganda, odatda, qalin berish masalasiga katta e'tibor berganlar.

Bu masalaga, ayniqsa, XIX asrning ikkichi yarmidan to XX asrning yarmigacha katta e'tibor qaratilgan. Ammo XX asrning

o'rtalaridan boshlabyu qalin berish odati faqatgina nikoh qurishning asosiy shartlaridan biri sifatidagina e'tirof etilib, aksariyat adabiyotlarda shunga o'xshash umumiy gaplarni uchratish, mumkin, xolos. Bu hozirgi kunda ham ko'zga tashlanadi. Balki bunga XIX va XX asrning yarmida qalin haqida ko'p gap so'z yuritilganligi sabab bo'lgandir. Qalin juda katta miqdorni tashkil qilgan qozoq² xalqida bu masal bo'yicha nisbatan ko'proq ma'lumot uchraydi. Qig'iz, qoraqalmoq. Tojik va turkman xalqlarida qalin nikoh qurishning asosiy shartlaridan biri hisoblansa ham, bu odat bo'yichyaa qozoq xalqiga nisbatan kamroq ma'lumot uchraydi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. O'zbek xalqida qalinning o'zi alohida o'rganilmagan bo'lsa ham nikoh va oila masallarini o'rgangan olimlar bu masalani chetlab o'tganlari yo'q.³ Ammo oila-nikoh masalalrini o'rgangan olimlar ishini umumiy olib qaraganda qalin masalasi kam o'rganilgan, desak ham bo'ladiyu o'rganilgan asar, ilmiy ishlarning ko'pchiligida esa qalin o'zbek xalqining alohida guruhlarida, ma'lum bir hududlarida ko'rilib, kam yoritilgandir. Uning ustiga bularning ko'pchiligida qalin faqat tanqid ostiga olinib, "eski urtf-odatlarga kurash siyosati" tufayli bu odat haqidagi ma'lumotlar (ayniqsa, uning qiymati) burttirilgan holda ko'rsatilgan va yoritilganda xatoliklarga yo'l qo'yilgan (masalan, to'yning boshqa bir xarajatlarini ham qalinga qo'shib yuborilishi).

² Левшин А.И. Описание киргиз-казачьих или киргиз-кайсацких орд и степей. Ч.3.СПб., 1832; Ибрагимов И. Этнографические очерки киргизского народа / Сб.Р.Т.В.І. М., 1872; Загряжский Г. Юридические обычаи киргиз и о народном суде у кочевого населения Туркестанского края по обычному праву / Матер. для статистики Туркестанского края. В. IV. СПб., 1876; Гродеков Н.И. Киргизы и каракиргизы Сырдарьинской области. Т.І.Т., 1889; Тронов В.Д. Обычаи и обычное право киргиз. Зап.РГО по отделению этногр. Т. XVII, В.2. СПб., 1891; Кусиаеакв Х. Этногравические очерки киргиз Перовского и Казалаинского уездов. Т., 1894; Аничков И.В. К вопросу о калыме / Сб. Средняя Азия: Альманах.-СПб., 1895;

³ Загряжский Г. Каракиргизы// ТВ.1874, №41; Абрамзон С.М. Свадебные обычаи киргизов Памира/Тр АН ТаджССР. Т.120. Душанбе, 1959;

Shunga qaramay, XIX asrning oxirlarida A.D.Grebeknkin Zarafshon vohasi o'zbeklarida, er-xotin V.P.Nalivkin va M.V.Nalivkinalar Farg'ona vodiysi o'zbeklarida qalin haqida qiziqarli va nisbatan to'liq ma'lumot beradilar.

Sovet davrida M.O.Kosven qalinning kelib chiqishi haqida, N.A.Kislyakov qalin berib uylanishni nikoh shakllaridan biri sifatida o'rganib, qalin bilan bog'liq odatlar haqida, N.P.Lobacheva Xorazm o'zbeklarida qalin qanday o'rin tutishi, shu bilan birgalikda u bilan bog'liq odatlar haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiradilar.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng O.Bo'riev, I. Shoymardonov, Q.Nasriddinovlarning hamkorliklarida yozgan asarlarida O'zbekiston janubida (Qashqadaryo va Surxandaryo vohalari) qalin berish bilan bog'liq odatlar haqida, S.A.Soatova Yuqori Zarafshon vohasi milsolida, G.S.Toshevala Qashqadaryo vohasi misolida qalinli nikoh (nikoh shakllaridan biri sifatida) hamda u bilan bog'liq odatlar haqida o'z ilmiy ishlarida, Z.X.Arifxanova Toshkent o'ahrida qalinning qiymati haqida qiziqarli ma'lumotlar beradilar. Ammo bu asar va ilmiy ishlar ham O'zbekistonning ma'lum bir hududlariga tegishli bo'lib, qalinni to'liq ochib bera olmaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. O'z navbatida, biz qalin masalasini O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilluvchi o'zbek xalqi misolida o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Barchaga ma'lumki, so'nggi yillargacha, ayniqsa, Sovet davrida nikoh to'yi bilan bog'liq urf-odatlarga ortiqcha (kerakmas) deb sanalgan. Shularning ichida qiz uzatish bilan bog'liq bo'lgan qalin berish odati, yuqorida aytganimizdek, eng ko'p qoralangan, desak ham bo'laveradi. Bu odat hozirda ham ma'qullanmaydi. Aynan shuning uchun ham qalinni yoritib berishda biz bu odatning hozirgi

kunga qadar saqlanish sababiga, uning ijobiy va salbiy tomonlarining tahliliga asosiy e'tiborni qaratdik. Fikrimizni tegishli adabiyotlar va shu mavzuda olib borgan tadqiqotlarimiz asosida isbotlashga harakat qilamiz. O'z navbatida bu odatni to'liq ochib berishga harakat qilamiz, chunki faqat qalin berish odatini to'liq ochib bergan taqdirdagina biz uning saqlanish sirini bilishimiz mumkin.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari. Mavzuni har tomonlama haqqoniy va xolisona yoritish uchun tadqiqotning yangicha va hozirgi davr talabiga javob beradigan usullardan, xususan, tipologik, qiyosiy va kompleks tahlil, etnosotsiologiya va etnopsixologiya metodlaridan sotsiologik so'rov va psixologik tahlildan, tarixiy-taqqoslash va davrlashtirish usullaridan foydalanildi. Muallif dissertatsiya mavzusini yoritishda metodologik asos vazifasini o'tagan O.A. Suxareva va M.A. Bikjanova, K.Sh. Shoniyozov, N.A. Kis-lyakovlarning etnografik, D. Kutsarning etnosotsiologik, G'.B. Shoumarovning etnopsixologik, F. Otaxo'jaevning huquqiy oila va nikoh masalalari tahliliga doir asarlariga tayandi.

Tadqiqotning manbaviy asosi. Mavzu bo'yicha ishlatilgan manbalarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) rasmiy hujjatlar – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- 2) manbalar – “Avesto”, so'g'd hujjatlari³¹, Qur'oni Karim va hadislar to'plami³³, Burhonuddin Marg'inoniyning “Hidoya” asari, Kaykovus, Beruniy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari³⁵ asosiy manba bo'ldi.

3) ilmiy adabiyot va maqolalar – O'zR FA Fundamental kutubxonasi, O'zR FA Tarix instituti kutubxonasi, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti kutubxonasi, Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Frantsuz instituti (IFEAS) kutubxonasi, shuningdek mahalliy gazeta va Internet tarmog'i saytlari;

Axborotchilarning yoshi: 19-29 gacha 7%, 30-39 gacha 12%, 40-49 gacha 19%, 50-57 gacha 29%, 58-70 gacha 20%, 83-96 gacha 13%

Axborotchilarning millati: o'zbeklar-93,6%, tojiklar-4,7%, boshqa millat vakillari-4,7%

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish- kirish, II bob, to'rt band, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

1 BOB. QALIN TUSHUNCHASI VA UNING HAJMI

1.1. Qalinning paydo bo'lish tarixi

Qalin-nikoh to'yida qiz uchun kuyov tomonidan beriladigan pul, mol, buyum va shu kabilardir. “Qalin” turkiy so'z bo'lib, “qiz uchun to'lanadigan haq” yoki “kelin tomonga beriladigan moddiy yordam” degan ma'noni anglatadi.⁴

Qadimgi turkiy tilda qalin so'zining vaziyat va matnga ko'ra, ko'p sonli, sanoqsiz, guruh, to'planish, kengash, olomon, yo'g'on, zich ma'nolari bo'lgan. An'anaga binoan qalin miqdori ham ma'lum bir qoidalarga bo'ysungan. Qiz tomon o'zi istagan qalin talab qilavermagan. Qalin odatda urug' kengashi, oqsoqollar tomonidan belgilangan. Shunga asosan, A.Musaqulov qalin so'zining lug'aviy, tarixiy ma'nosini urug' kengashi belgilagan va yigit tomonidan qiz tomoniga beriladigan an'anaviy to'lov, deb izohlaydi.⁵

Qalinning paydo bo'lishi ibtidoiy davrga borib taqaladi. Monogamiya va mustahkam patrilokallikka o'tish bilan nikoh shakllarida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'lgan. Ayolga mehnat kuchi sifatida qaralib, oila uni kuzatar ekan, uning evaziga ma'lum haq to'lashni talab qila boshlagan.⁶ Patriarxal tuzumning emirilishi natijasida oilaning qayta tuzilishi tufayli, ayollarning mavqei o'zgargan. M.O. Kosvenning ma'lumotlariga ko'ra, agar ilgari patriarxal oilada ona urug'i asoratlarini saqlab qolgan va katta oila jamoasi boshlg'i “katta” ayol bilan birga barcha katta yoshdagi o'z obro'lari, o'z shaxsiy va mulkiy mustaqilliklariga ega bo'lgan bo'lsalar, keyinchalik, ayniqsa, kichik oilalarda ayollar o'zlarining barcha huqularini yo'qotganlar. Ishlab chiqarish faoliyatining asosiy sohalarida mashg'ul bo'lgan erkaklar mehnatining xo'jalik

⁴ Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'atit turk. III tom. T., 1963, 382-b.

⁵ Musaqluv A. Qalin G'G' Mulovot. 1993. №11-12, 53-b.

⁶ Qarang: Kosven M.O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. T., 1960, 135-b.

ahamiyati orta borgan. Uy xo'jaligining rivojlanishi va ayrim sohalarga bo'linishi natijasida ayollar mehnati borgan sari faqat uy ishlari bilan chegaralanib qolgan. Bularning hammasi ayollarning ijtimoiy taqdirini belgiladi. Qalin to'lab uylanishning paydo bo'lishi ularning taqdirini yanada og'irlashtirdi. Oila o'zining har bir a'zosiga ishchi kuchi sifatida qarab, qizni erga bera turib, oila uning evaziga haq to'lashni talab qilgan. Savdo-sotiqning rivojlanishi bilan ayollar mehnat bahosi o'z ifodasini to'la topdi. M.O.Kosvenning ta'rifi bo'yicha, "ayolning bahosi" paydo bo'ldi.

Slavyan qabilalarida ham qalin berish odati mavjud bo'lib, u sepdan farqli ravishda *veno* deb yuritilgan. Slavyanlardagi veno, mo'g'ul va turkiy xalqlardagi qalin dastlab turli xil buyumlar berishdan, keyinchalik, ayrim hollarda, pul to'lashdan iborat bo'lgan.⁷ Janubiy Afrikadagi zulus qabillarida esa qalin *lobolo* (*lobola*) deb yuritilib, mol (chorva) bilan berilgan.⁸

Yuqorida qalinni, ayniqsa, Sovet davrida qattiq qoralanganligi to'g'risida aytib o'tdik. Shu boisdan. M.O.Kosven o'zining "ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar" asarida qalinga nisbatan salbiy munosabatini bildirgan holda quyidagi ma'lumotlarni beradi. U qalinni sahnalashtirilgan savdo bitimiga o'xshatadi, ya'ni movchi "savdogar", qiz "mahsulot"dir. Sotib olinayotgan qizni ko'rish odatiga aylanib borayotgan va savdo bitimi tuzish uchun tusini olgan rasmiy nikoh-qiz ko'rish to'y marosimining muhim qismiga aylangan. Qiz tomon kelin ko'rish vaqtida qizning hamma kamchiliklarini aytib berishi zarur bo'lgan, aks holda nikoh haqiqiy bo'lmasligi yoki belgilangan narx kamaytiriishi mumkin bo'lgan.

⁷ Kosven:Kosven M.O. Ibtidoiy madaniyatning tarixidan ocherklar. T., 1960, 214-b.; Musaqllov A. Qalin G'G' Mulovot. 1993. №11-12, 52-b.

⁸ Қаранг: Ольдерогге Д.А. Из истории семьи и брака (Система лоболо и различные формы кузенного брака в Южной Африке) // СЭ. 1947, №1.стр. 13-30; Этнос в доклассовом и раннеклассовом обществе. М, 1982, стр.19-20.

“Xush kelibsiz, sovchilar,- der edi qadimgi beloruslarda qizning otasi qizini ko’rsatish paytida, -mening molim ko’r emas, cho’loq emas, xudo menga ham shunday kelin ato qilsin”. M.O.Kosvenning “qalin kelinni sotib olish uchun beriladi” degan fikrga umuman, bu borada biz qalinning o’rni haqida so’z yuritganimizda batafsilroq tao’xtalib o’tamiz.

Qalin to’lab uylanish sepning tarkibini ham o’zgartirdi u ko’pincha qalin qiymatiga barobar bo’lib. Erning shaxsiy mulki bo’lib qoldi, keyinchalik sep berish butunlay yo’qoldi va keyinchalik kasal, xunuk hamda boshqa kamchiliklari bo’lgan qizlarga beriladigan sep sifatida yangidan paydo bo’ldi.⁹

Xotin sotib olish ko’pxotinlikning rivojlanishi va keng tarqalishiga zamin yaratadi. Badavlat odam o’ziga bir necha xotin sotib olishi mumkin bo’lgan. Birinchi navbatda, aynan, katta oila boshliqlari, patriarxlar ko’p xotin ola boshlaganlar. Kambag’al, yoshroq erkaklar bir xotin bilan qanoatlangan. Ko’pxotinlikda birinchi xotin doim boshliq bo’liq. Keyingilari esa unga ko’pincha itoat etgan.¹⁰

Oila rivojlanishining bubosqichida (ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi davri) nikohning yangi g’oyasi yaratildi. Nikoh ham farz, ham qarz bo’lib qoldi. Chunki nikoh yo’li bilan oilaning xo’jalik kuchi mustahkamlandi: u oilaga yangi ishchi-xotin olib keldi va xo’jalikning, yangi avlodning davom ettirish sharti hisoblandi. Katta yoshdagi bo’yoqlarni qoralash va “qari qiz”larga boshqacha muomala qilish ham shundan kelib chiqdi. Nikohning yangi o’akli ayollar oldiga o’zgacha talablar qo’ydi. Ular tug’ishlari lozim edi. Natijada farzandsiz ayollar ayblandi, ko’pbolali ayollar sharaflandi. Xotinlariga faqat xo’jalik nuqtai nazaridan qarash qalinning

⁹ Qarang: Kosven M.O.Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar.T.,1960,135-136-b.

¹⁰ Kosven M.O.Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. T.,1960,215-216-b.

miqdorida ham aks etdi: “Sog’lom bola tug’ishga qobiliyatli ayollar yuqori baholandi”.¹¹

Ko’rinib turibdiki, qalin islom dinidan ancha avval paydo bo’lib, dinga hech qanday aloqasi yo’q.¹² O’rta Osiyoga ilsorm dinining kirib kelishi ham qalin kabi ibtidoiy rasm-rusumlarni yo’qolib ketishiga yoki o’zgarishiga ta’sir ko’rsata olmagan. Balki bundayodatlarga diniy tus berishga harakat qilingan. Shu tarzda qalin islom dini tan olgan va feodal-patriarxal davlati jamoatchiligi fikri tmonidan tasdiqlangan qadimiy marosim sifatida saqlanib kelmoqda.

Bunday jarayonni biz birinchi islom dini qabul qilgan va boshqa xalqlarni shu dinga o’tkazgan arab xalqida ham ko’ramiz. Musulmon arablarda qalin puli berish ota-onaning huquqi hisoblangan. Shuni alohida qayd qilish lozimki, yuqorida keltirilgan itbidoiy davrdagi qalin berish odati hanuzgacha barcha musulmon xalqida saqlanib qolishi bilan birga majburiyat ham hisoblanadi.

Ammo shu o’rinda, ko’pchilik “qalinni islom dini tan olgan” deganda, nimani nazarda tutadi? Bu borada biz qalin haqida har xil fikrlarga oydinlik kiritmoqchimiz.

Ko’p sonli tarixchilar, sayyohlarning guvohlik berishicha, qalinning ijrosi ijtimoiy ishlab chiqarishga ham bog’liq bo’lgan ekan. Hozirda ham qalin xuddi shunday xususiyatlarga ega. Qalinning berilishi hamma joyda ham bir xilda emas. Birgina Toshkent shahrining o’zida qalinni bir necha marosimda berish mumkin bo’lsa, ibtidoiy jamoadan to hozirgi davrgacha ba’zi viloyatlarda (asosan, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida) amal qilinib kelinayotgn odatlardan yana biri, bu qalinning ma’lum

¹¹ O’sha joyda, 216-b.

¹² Qarang: Jabborov I.M. o’zbek xalqi etnografiyasi. T.,1994,217-b.; Jabborov I. Turmush tarzi, urf-odat va odob.T.,1983; Musaquoulov A. Qalin G’G’ Muloqot. 1993, №11-12, 52-53-b.

miqdorini to'plab, qolganini keyin to'lashdir. Faqat, bu odat bizgacha o'zining ancha o'zgargan shaklida etib kelgan. Ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi davrida qalinning ma'lum miqdori to'langandan keyin (ko'pincha yarmi), kuyov o'z xotini bilan jinsiy aloqaga kirishish huquqiga ega bo'lgan, faqat qalinning qolgan qismini to'laganidan keyingina xotinini o'z uyiga ko'chirib olib ketgan. Hozirda bu odatga diniy tus berilib. Qalinning ma'lum miqdorni (1G'3 qismi) fotixa to'yidan oldin, qolganini fotihada berishadi.

Islom dini ibtidoiy davrdan to XIX asr oxiri XX asr boshlarigacha saqlanib kelayotgan udumlarning hammasiga ham o'z ta'sirini o'tkaza olmagan. O'zbekistonning ayrim viloyatlarida bunday udumlar saqlani, ular qatorida, jumladan, matrilokal nikoh qoldiqlaridan Qashqadaryoda "qalliq o'yin", Surxondaryoda "qanniq uyini"ni ko'rsatish mumkin. Unda fotiha to'yi o'tgach, yigit kiznikiga kecha qorong'usida kelib yurgan. Uigit va qiz yashirincha tunlari uchrashib turishiga opalari yoki yangalari ko'mak bergan. Fotihadan to'ygacha bo'lgan davr oralig'ida qudalar bir-birlarini sovg'a-salomlar bilan yo'qlab turishgan. Nikoh to'yi esa fotihadan 2-3 oy o'tgach qilingan. Agar kuyov to'yga tayyor bo'lmasa, bunda ham sovchilar o'rtaga tushib, to'yni kechiktirishni haqida kelishganlar. To'y esa ba'zan 2-3 yil va hatto undan ham ortga cho'zilib ketgan. Buning oqibatida mabod qiz bola homilador bo'libyu bundan bexabar yigit safarda bo'lsa, o'sha yigitning pichog'ini o'rtaga qo'yib nikoh o'qilgan va tug'ilajak bola haromi degan ta'nadan asrab qolingan.¹³

¹³ Mardonova G. Nur to'la uy. T., 1992, 19-b.

1.2 Qalinning hajmi

Qalinning hajmi qizga qanday erkak uylanayotganligiga bog'liq. Avvallari, agar qizga beva yoki ajrashgan kishi uylanayotgan bo'lsa. U holda kalin katta hajmda olingan. Ikkinchi xotin olsa, qalin ikki barobar to'langan. Qalin hajmini aniqlashda kuyov oilasining moddiy holati va qarindoshlik aloqalari ham e'tiborga olingan. Agar kuyov yaqin qarindosh yoki yaqin atrofda tursa, qalin hajmi qizning ota-onasi to'yga qiladigan xarajatlari doirasida bo'lgan. Agar kuyov tomon tortishib, qalin hajmini kamaytirishga harakat qilgan. Agar bir oiladan ikkita kelin olinsa, qalinni ikki barobar to'lashgan. Beva va ajrashgan ayolga uylanish oson bo'lgan. Bunday ayollarni Xorazmda "ayptar", Gurlanda "yog'osi kir", ya'ni aybi bor, deb atashgan.¹⁴

O'tmishda qalin shunchalik darajada nikohlanish shartida muhim ediki, erkaklar uning miqdori kam bo'lgan ayollarga uylanishdan manfaatdor bo'lganlar. Farg'ona vodiysida og'ir sharoitli erkaklar qizlarga uylanishdan ko'ra, juvon-xotinlarga uylanishni afzal ko'rganlar. Sababi, qalin faqat qizlarga berilgan. Xotinlarga qalin quidagi holatlarda to'langan:

1) agar ayol hali eridan ajrashmagan bo'lsa, u holda eri uylangan paytida qalin necha pul to'lagan bo'lsa, shuncha eriga to'lash kerak bo'lgan. Faqat shundagina ayol o'z eridan ajrashishi mumkin bo'lgan;

2) agar ayol eridan ajrashayotganida uning o'rniga qalinni to'lab yuborgan qarindoshlariga qarzdor bo'lsa, ushbu qarzni qarindoshlariga to'lash kerak bo'lgan.¹⁵

¹⁴ Лобачева Н.П.ю некоторые черты семьи хорнезмских узбеков в середине XX в. // ЭО.1999 №3.стр. 59.

¹⁵ Наливкин В.П., Наливкина М.В. Очеры быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань, 1886, стр.209.

Qalin hajmini ota belgilagan. O'tmishda qalin pul yoki mol, shuningdek, ham pul, ham mol (chorva), ham narsa (kiyim-kechak. To'y mahsuloti va h.k.) sifatida olingan. Umuman olganda, qalin dastlab turli xil buyumlar berishdan, keyinchalik, ayrim hollarda, pul to'lashdan iborat bo'lgan. Keyinchalik qalinni narsa bilan berish qolib ketib, kuyov tomon narsani qiz tomonga sep sifatida beradigan bo'ldi. Shu bilan birgalikda to'y mahsulotlarini berish ham alohida marosimga aylandi (to'y yuborar, to'y kelar). Qalinni chorva bilan berish asosan yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi xalqlarda qolib, o'troq, ayniqsa, shaharlarda turadigan aholida faqat qalin pul beriladigan bo'ldi. Hozirda qalin deganda asosan pul tushuniladi.

Iroqda qizga beriladigan pulning qiymati 200 iroq dinori bo'lganyu biroq shayxlarning qizlariga beriladigan pulning qiymati turlicha bo'lgan, bu qoidaga amal qilinmasdan 1000 iroq dinoridan ortiq pul berilgan holatlar ham uchragan.

XIX asrning oxirlarida P.Maev Toshkent shahri o'zbeklarida qlainga puldan tashqari (unng qiymati haqida hech qanday ma'lumot bermaydi) kelinga kiyim bosh va to'yga kerakli mahsulot ham kiradi, deb yozadi. XX asrning boshlarida M.Gavrilovning ma'lumoticha. Qalinga o'nlab chopon va ro'mollar. 3 ta chit, 4 ta ot va 25 taqo'y bilan 500 ruyu. "sut puli", shuningdek, to'y uchun mahsulotlari, kelin va kuyovning hamda uning qarindoshlariga asosiy sepiga ketadigan kiyim-kechaklar va paxta kiradi, deb yozadi. Shu bilan birgalikda, tor ma'noda qalin deganda, o'zbek va tojiklarda pulni tushunishadi. U 1980 yillarda taxminan 500-1500 rublgacha borgan. Bu pullarga kelin tomon kuyovga to'y kiyimini olib berishi kerak, deb qo'shimcha qiladi S.N.Abashin.

Umuman olganda ko'pchilik rus olimlari qalinni to'yning boshqa marosimlariga ketadigan narsalar yo xarajatlar bilan

adashtiradiyu qozoqlarga nisbatan o'zbeklarda qalin shaklan kam ifodalanganligi bois, qalinni sep va qolgan to'y xarajatlari bilan aniq bir chegarasini aniqlash qiyin. Natijada qalinning miqdori ikki yo uch barobar oshib ketadi. Masalan, kiyim-kechaklar kelinning sepida, to'y mahsulotlari aslida to'y yuborar marosimida beriladi va qlinga hech qanday aloqasi yo'q. Yuqorida aytilgan P.Maev va M.Gavrilovlarning ma'lumotlari, arxiv hujjatlariga ko'ra, ko'proq qirg'iz, qozoqlarga tegishlidir. Chunki xuddi shu arxiv hujjatlari Toshkent o'zbeklarida qalin pul bilan berilganligi haqida ma'lumot beradi. Umuman olganda, yuqorida aytganimizdek, qalin ham pul, ham mol narsa sifatida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlarda beriladi. O'troq xalqning chorvasi bo'lmaganligi sababli bunga imkoniyati yo'q.

O'zbek to'ylari urf-odat, rasm-rusum va marosimlarga boy bo'lib, ular bu murakkab jarayonni uning barcha bosqichlarida kuzatadilar. Shunday ekan, o'zbek nikoh to'ylari uzoq tayyorgarlik ko'rish bilan amalga oshiriladi. To'yga tayyorgarlik deganda, biz farzand tug'ilishi bilan ko'riladigan, sovchilikkacha bo'ladigan tayyorgarlikni nazarda tutyapmiz. Nikoh to'yiga ko'riladigan tayyorgarlik umumiy ko'rinishga ega bo'lsa ham, bir xilda emas. O'zbeklarda to'y xarajatlari kelin-kuyov ota-onasi uchun juda og'irlik qiladi. Aynan, shuning uchun ham o'zbek xalqi to'yga taraddudni 1-2 yil oldin emas, balki farzan-dining tug'ilishi bilan boshlaydi. To'yga tayyorgarlikni dala ma'lumotlari-miz⁴⁰ va shaxsiy kuzatuvlarimizga asoslangan holda odamlarning quyidagi ahvoli bilan belgilaymiz: 1) moddiy ahvoli; 2) u yoki bu hududning urf-odatlarining xususiyatlari; 3) yashash turmush-tarzi. Oilaning moddiy ahvoliga ko'ra, to'yga tayyorgarlikni 2 xil ko'rinishda berish mumkin: 1) farzandining yoshligidan to'yga tayyorgarlikni

ko'rishga qurbi eta oladigan o'ziga to'q va boy oilalar; 2) farzandining yoshligidan kelajakda sarpo yig'a olmaslikka yoki to'yni ko'ngildagidek o'tkaza olishga qurbi etmaydigan kambag'al oilalar.

O'zbeklarda qiz tug'ilibdiki, unga sep yig'ib boriladi. Toshkentliklar azaldan terak ekkanlar, ammo shaharning o'zida emas, balki shahar chetlarida, da-la hovlilarda, chunki shaharning o'zida ekishga sharoit yo'q edi. Hozir Toshkent-da terak ekish qolib ketdi. Ko'pchilik oldindan o'g'lining borgan sari o'sib borayotganini ko'rib, kelin kelishi munosabati bilan yangi uy olish harakatiga tusha-di, agar buning ilojisi bo'lmasa mavjud uyini kattalashtirishga harakat qila-di. Ammo to'y taraddudi faqat moddiy tayyorgarlik bilan cheklanmaydi. To'ylar-da yaqin qarindoshlarning (amma, xola, amaki, tog'a, jiyan va h.) o'rni ahamiyatli-dir. Ular nafaqat to'y egasiga moddiy tomondan yordam beradilar, balki to'y marosimlarida boshidan oxirigacha o'zlari faol qatnashadilar va qo'ldan kel-gancha yordam beradilar. To'yga taraddud ko'rishda qo'shnichilik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yaxshi qo'shnichilik qadimdan to bugungi kungacha to'y va marosim-larni o'tkazishda ancha engilliklar tug'dirgan. Ular to'y egasining «tog'ora-larini ko'tarishda», to'ydan oldin va keyin ham xizmatda bo'lishlarida muhim o'rin tutadilar. Shuningdek, qiz yoki yigitning to'yi bo'lish yo bo'lmasligi ma'lum darajada qo'shnilarga ham bog'liq. Kelgan sovchilar, albatta yigit yoki qiz va uning oilasi haqida qo'shnilardan ma'lumot olishga harakat qiladilar. Qo'shnilarning javobi bilan sovchilar yo yana qaytib keladilar, yo qaytib kelmaydilar. Yigit masalasida ham xuddi shundaydir. To'ylarda, shuningdek, do'stlarning ham ahamiyati juda katta. Bu o'rinda ayollar va erkaklar o'rtasida o'tkaziladigan «gap»ning o'rni katta.

Ulfatlar bir-birlariga to'y-hashamlarda nafaqat xizmat 40 Dala ma'lumotlari: Toshkent sh, 2002–2007 y.; Toshkent v. Bo'stonliq t., 2004 y.; Samarqand sh., 2001–2002 y.; Andijon v. Andijon sh., Buloqboshi va Xo'jaobod t., 2004–2006 y.; Farg'ona v. Qo'qon sh., 2004 y.; Namangan v. Namangan sh., Pop t., Pop sh., 2006 y.; Qashqadaryo v. Kitob va Shahrisabz t., 2004 y.; Sirdaryo v. Sardoba t., 2005 y.; Xorazm v. Urganch sh., Xiva sh., Yangi ariq t., Qo'shko'pir t., 2005 y.; Buxoro v. Buxoro sh., Shofirkon t. 2007 y.

To'yda to'yga ketadigan va to'yga keladigan pishiriq, oziq-ovqatlar Toshkentda tog'orada olib kelinganligi bois, narsa olib kelishni "tog'ora olib kelish", deb xalq ichida tanilgan.

O'zbek to'ylari urf-odat, rasm-rusum va marosimlarga boy bo'lib, ular bu murakkab jarayonni uning barcha bosqichlarida kuzatadilar. Shunday ekan, o'zbek nikoh to'ylari uzoq tayyorgarlik ko'rish bilan amalga oshiriladi. To'yga tayyorgarlik deganda, biz farzand tug'ilishi bilan ko'riladigan, sovchilikkacha bo'ladigan tayyorgarlikni nazarda tutyapmiz. Nikoh to'yiga ko'riladigan tayyorgarlik umumiy ko'rinishga ega bo'lsa ham, bir xilda emas. O'zbeklarda to'y xarajatlari kelin-kuyov ota-onasi uchun juda og'irlik qiladi. Aynan, shuning uchun ham o'zbek xalqi to'yga taraddudni 1–2 yil oldin emas, balki farzan-dining tug'ilishi bilan boshlaydi. To'yga tayyorgarlikni dala ma'lumotlari-miz⁴⁰ va shaxsiy kuzatuvlarimizga asoslangan holda odamlarning quyidagi ahvoli bilan belgilaymiz: 1) moddiy ahvoli; 2) u yoki bu hududning urf-odatlarining xususiyatlari; 3) yashash turmush-tarzi. Oilaning moddiy ahvoliga ko'ra, to'yga tayyorgarlikni 2 xil ko'rinishda berish mumkin: 1) farzandining yoshligidan to'yga tayyorgarlikni ko'rishga qurbi eta oladigan o'ziga to'q va boy oilalar; 2) farzandining yoshligidan kelajakda sarpo yig'a olmaslikka yoki

to'yni ko'ngildagidek o'tkaza olishga qurbi etmaydigan kambag'al oilalar.

O'zbeklarda qiz tug'ilibdiki, unga sep yig'ib boriladi. Toshkentliklar azaldan terak ekkanlar, ammo shaharning o'zida emas, balki shahar chetlarida, da-la hovlilarda, chunki shaharning o'zida ekishga sharoit yo'q edi. Hozir Toshkent-da terak ekish qolib ketdi. Ko'pchilik oldindan o'g'lining borgan sari o'sib borayotganini ko'rib, kelin kelishi munosabati bilan yangi uy olish harakatiga tusha-di, agar buning ilojisi bo'lmasa mavjud uyini kattalashtirishga harakat qila-di. Ammo to'y taraddudi faqat moddiy tayyorgarlik bilan cheklanmaydi. To'ylar-da yaqin qarindoshlarning (amma, xola, amaki, tog'a, jiyan va h.) o'rni ahamiyatli-dir. Ular nafaqat to'y egasiga moddiy tomondan yordam beradilar, balki to'y marosimlarida boshidan oxirigacha o'zlari faol qatnashadilar va qo'ldan kel-gancha yordam beradilar. To'yga taraddud ko'rishda qo'shnichilik ham muhim ahami-yat kasb etadi. Yaxshi qo'shnichilik qadimdan to bugungi kungacha to'y va marosim-larni o'tkazishda ancha engilliklar tug'dirgan. Ular to'y egasining «tog'ora-larini ko'tarishda»⁴¹, to'ydan oldin va keyin ham xizmatda bo'lishlarida muhim o'rin tutadilar. Shuningdek, qiz yoki yigitning to'yi bo'lish yo bo'lmasligi ma'-lum darajada qo'shnilarga ham bog'liq. Kelgan sovchilar, albatta yigit yoki qiz va uning oilasi haqida qo'shnilardan ma'lumot olishga harakat qiladilar. Qo'shnilarning javobi bilan sovchilar yo yana qaytib keladilar, yo qaytib kelmaydilar. Yigit masalasida ham xuddi shundaydir. To'ylarda, shuningdek, do'stlarning ham ahamiyati juda katta. Bu o'rinda ayollar va erkaklar o'rtasida o'tkaziladigan «gap»ning o'rni katta. Ulfatlar bir-birlariga to'y-hashamlarda nafaqat xizmat Qiz tanlash g'oyat ma'suliyatli ish bo'lib, uni avvalo o'z qarindoshlaridan

izlaydilar. Bu ularga nisbatan hurmatni bildiradi. Bugungi kunda azaldan mavjud bo'lgan qarindosh-urug'lar orasidagi nikohlar natijasida paydo bo'ladigan nasliy xastaliklar aniqlanganligi sababli, qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar kamayib ketdi-ku, ammo yo'qolib ketgani yo'q. Undan tashqari, bunga yoshlarda tanlash huquqining ko'pligi, aloqa qilish va tanlash doirasining kengligi ham sabab bo'ldi. Xuddi shuningdek, mahalla, do'st-birodar, tanishlardan ham qiz so'rash bir tomondan ularga nisbatan hurmat bo'lib, ikkinchi tomondan esa ular ham qiz topishda yordam berishlari mumkin. Kelin tanlashda obdon so'rab-surishtiriladi. Oxirgi paytlarda kelin izlashda Oliy o'quv yurtalariga ham murojaat qilishmoqda (ayniqsa, tibbiyot sohasida).

O'z navbatida, umr yo'ldosh tanlashda nikohgacha uchrashuvning ahamiyati katta. Etnosotsiologik tadqiqotga ko'ra⁴⁸, umumiy hisobda 54% respondentlar (ayollar – 56,9 %, erkaklar – 50 %) yoshlar bir-birlarini yaxshi bilishlari uchun uchrashib yurishlarini ma'qullaydilar. 44% respondentlar (ayollar – 39,7 %, erkaklar – 50 %) bunday yurishlarni ma'qul ko'rmay, faqat sovchilik orqali rasmiy uchrashuvlarni ma'qul ko'radilar. Buning sababi sifatida “baribir yigitlar yurganiga emas, ota-onasi aytganiga uylanadi, yurmagan yaxshi” javobini keltiradilar. Shu bilan sovchilik orqali uchrashuvga ayollardan ko'ra erkaklar ko'proq ijobiy javob berdilar. Faqat 3,4 % ayollar o'zlarining befarqliklarini bildirdilar.

O'tmishdan farqli o'laroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bugungi kungacha yoshlar turli shart-sharoitlarda tanishmoqdalar. Kimdir o'qish, ish joyida, kimdir o'zi, kimdir biron-bir o'rtog'i, dugonasi, qarindoshi, kimdir sovchilar yordamida tanishishlari mumkin. O'zbek oilasining etnik xususiyat-laridan kelib chiqqan holda yosh oilaning yuzaga kelish shartlari orasida keng

tarqalganlaridan biri sovchilik tufayli oilalarning yuzaga kelishidir. Umuman, sovchilikning milliy, etnik, an'anaviy amallariga, talablariga rioya qilish nikoh mustahkamligining muhim shartlaridan hisoblanadi.

Etnosotsiologik tadqiqotimizga ko'ra⁴⁹, umr yo'ldosh tanlashda muhim hisoblangan omillarni o'ringa qo'yilishi va ovoz berilishiga ko'ra o'zbeklar uchun birinchi o'rinda oilaning yaxshi yomonligi, ikkinchi o'rinda sevgi, uchinchi o'rinda esa sog'liq bo'ldi. Respondentlar o'zlarining qanday omilni muhim deb hisoblashlarini bildirganlar, xolos. Ammo amalda hammasi boshqacha ko'rinishga ega. Hozirgi kunda Toshkentda kelin yo kuyov tanlashda oilaning moddiy tarafi, qiz, ayniqsa yigitning qaerda ishlashi (ishlaydimi yo yo'qmi), qanday kasbdaligi, sog'ligi, yomon xislatlarning bor-yo'qligi (ichish, qiz yo yigitlar bilan "yurish", giyohvandlik) va oilaning umuman yaxshi-yomonligi birinchi o'ringa chiqib qoldi, oilaning qaerdanligi (asli Toshkentliklar bunga juda katta e'tibor beradilar), yigit, ayniqsa qizning tashqi ko'rinishi, sevgi, ma'lumoti bor-yo'qligi ikkinchi o'ringa va nasl-nasabi, ijtimoiy tabaqasi,

2 BOB. O'ZBEKLAR HAYOTIDA QALINNING TUTGAN O'RNI

2.1. Islomda qalinning o'rni va qalin bilan mahr o'rtasidagi farq

F.Otaxo'jaev o'z asarida qalin musulmon odati sifatida XIX asr-XX asr boshlarigacha rasmiylashtirilgan edi, deydi. Uning fikricha, shariat bo'yicha nikoh ahdini tuzish shartlaridan biri qalinni to'lash va ajratilgan mahrni berishdir. Busiz nikoh haqiqiy emas deb hsioblangan. Muallif bu ma'lumotlarni nimaga asoslanib yozganligi noma'lum. Ammo asarning "Shariat va odat bo'yicha nikoh" bandining boshida Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya. Kommentariy musulmanskogo para" asariga izoh bergan.¹⁶ Bu olimning ushbu asarni ko'rib chiqqanligidan dalolat beradi. Ammo bu asarning o'ziga keladigan bo'lsak, u holda bu erda qalin to'g'rsida hech qanday ma'lumot mavjud emas. Ko'rinishidan F.Otaxo'jaev bu asarda aynan mahrni vanglatuvi ruscha "veno" so'zini qalin bilan adashtirib xatoga yo'l qo'ygan, shekilli. Chunki Burhoniddin Marg'inoniyning o'zbek tilidagi "Hidoya" asarida hamqalin haqida hech qanday so'z yuritilmagan. Mahrga esa alohida bob ajratilgan.

Shariat-arabacha "shar'a" –yo'naltirmoq, qonunchilik, to'g'ri yo'l ma'nosini anglatadi.

Unga Qur'on va "Sunna" asos qilib olingan bulib, musulmonlarning moddiy va ma'naviy, ijtimoiy va shaxsiy hayotini tartibga soluvchi diniy huqu tizimini tashkil etadi. Shariatdagi qoidalarda nikoh-oila va maishiy masalalarga alohida urin beriladi.¹⁷

¹⁶ Otaxo'jaev F.M, Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. T.. 1995,39-b.

¹⁷ Qarang: Shorahmedov Sh. O'zlikni anglash mavridi yoxud musulmon huquqi-fuqarolik ishlarini hal etish (yuritishning) ayrim masalalari haqida G'G' Xalq so'zi, 1993, 24 avgust.

Borada savol tug'iladi: **mahr bilan qalin o'rtasida qanday farq bor?** Bular mutlaqo boshqa-boshqa narsalardir.

Sobiq Sovet hukumati davrida nashrdan chiqqan "Islom Spravochnik" ma'lumotnomasida nafaqat mahr haqida, balki qalin haqida ham alohida maqola berilgan.¹⁸ Bu bilan spravochnik mualliflari qalinni ham islom terimniga kiritadilar. Unga ko'ra mahr (arab-qiz uchun to'lanadigan haq) musulmon xalqlarida nikoh paytida kuyov tomonidan kelinga sovg'a qilinadigan ko'chmas mulkyu O'zbekistonda ham davlat to'ntarishgacha (1917) mavjud bo'lgan.¹⁹

Qalin ma'lumotnomada quyidagicha berilgan: "Qalin (turk.qolim)- musulmonlarda uylanish vaqtida kelin uchun tulanadigan pul va mol"²⁰

Ma'lumotnoma sovet davrida nashrdan chiqqanligi bois, u ateistik ruhda yozilgan va albatta, qalin hamda mahrning amalda qo'llanilishi berkitilgan. Yana shuni e'tiborga olish kerakki, ma'lumotnoma diniy ulamolarning aralashuvisiz faylasuflar tomonidan tuzilgandir. Ammo bir narsa bizning e'tiborimizni o'ziga jalb qiladiki, bu mahrning qalin shakliga kirish haqidagi ma'lumotidir.

Bu borada X.G.Ishankulov quyidagicha tushintirish beradi. Uning fikricha, O'rta Osiyo sharoitida mahr mahalliy urf-odatlar ta'siri ostida qaror topdiyu uning ta'kidlashicha yu qalin shariat qat'iy belgilagan o'lchamlarga zid keladi, ammo ruhoniylar "ikkiyuzlamachilik" bilan qalinni "mahr" deb atay boshlaganlar (aniqrog'i uni to'y paytida naqd to'lanadigan qismini). Qonunga to'la amal qilish uchun esa ruhoniylar kelinni mahrni o'z otasiga

¹⁸ Islom G'G' Spravochnik. G' M.A.Usmonov tahriri ostida. T., 1987, 122-123-b.

¹⁹ O'sha joy. 191-b.

²⁰ O'sha joy. 191-b.

berish to'g'risidagi gapini aytishga "majbur" qilishardi. Shu asnoda rasmiyatchilikka amal qilinib, qalin mahr shaklida ifodalangan. Bugungi kunda diniy ulamolar bu haqda nima deydi?

Ushbu savol ko'pchilikni qiziqtirganligi bois "Dinda savolim bor..." risolasida²¹ ham o'rin olgan. Undagi javob bizning fikrimizni tasdiqlaydi. Ya'ni islomda qalin umuman yo'q, balki qalindan tubdan farq qiladigan "mahr" bor. F.Otaxo'jaevning yozishicha, mahr-nikoh ahdi tuzilishi jarayonida er tomonidan o'z mulikdan xotiniga berilish lozim bo'lgan uy-joy, sepdir. Aslida mahr o'zi rozi bo'lib, oila qurishga ixtiyor qilgan qizga kuyovning ko'nglidan chiqarib beradigan hadyasi, sovg'asi. Boshqacha qilib aytganda. Mahr-nikoh vaqtida kuyov tomonidan kelinga ajratiladigan odimiy va shaxsiy mulk.

Mahrga kuyov hohlagan narsasini berishi mumkin, ehtimol, u tilla taqinchoqlar bo'lar. Hozirda keng tarqalgan tilla uzuk bo'lar, balki ko'ylaklar yoki javon bo'lar-buni kelin-kuyovning o'zlari belgilashadi.

Qalinda esa aksincha, hohlagan narsa berilmaydi va kelin kuyov uning narxini belgilamaydi.

Mahr- kelinning shaxsiy daxlsiz haqi, mulki bo'ladi. Ota-onasi, yaqinlari bunga aslo aralasha olmaydi va kelinning hohishsiz unga egalik qilolmaydi ham. Qalinning taqdirini esa, kelin emas, balki uning ota-onasi hal qiladi. Va u kelinning shaxsiy mulki hisoblanmaydi. Qalin to'liq otaning mulkiga qo'shilib, uning o'limidan so'ng merosxo'rlarga o'tadi.

Nikoh mustahkamligiga yoshlarni oila qurgunlariga qadar birlarini qancha vaqt bilganliklari, ular qanday sharoitlar va shartlarga ko'ra tanishib oila qurishlari ham ta'sir ko'rsatadi.

²¹ Qarang: Dindand savolim bor... G' Musanniflar: Muhammad Sharif Juman, Ahmad Muhammad. T., 2004, 88-b.

Bundan kelib chiqqan holda sevgi omili ham nikoh mustahkamligida ahamiyatlidir. Ammo o'zbeklarda, tadqiqotga ko'ra, oila mustahkamligida sevgi oilani mustahkamlovchi, uning yo'qligi esa oilani buzilishiga olib keluvchi omil sifatida, respondentlarning javobiga ko'ra 8-o'rindadir.

Oila mustahkamligida o'zbeklarda qarindoshlarning, xususan qaynonaning roli ham juda katta. Etnosotsiologik tadqiqotda⁶³, oilani mustahkamlashda umr yo'ldoshning qarindoshlar bilan munosabatining yaxshiligi yuqori o'rindan joy olmagan, ammo oilaning buzilishida u quyi o'rindan joy olmagan. Ko'p holat-larda qaynona-kelin o'rtasidagi ziddiyatlar oila buzilishiga sabab bo'ladi. Bu borada respondentlarga "Qaynona-kelin o'rtasidagi munosabatlar ko'p oilalar-da qanday shakllangan?" degan savol berildi. Bunga respondentlar quyidagicha javob berdilar: 49 % – "qaynona kelinga uy xizmatchisi sifatida qaraydi va uni kamsitadi" (ayollar – 44,8 %, erkaklar – 54,8 %), 42 % – yangi xonadonda kelindan qattiq talab qilishadi (ayollar – 43,1 %, erkaklar – 40,5 %), 35 % – qaynona o'g'lini kelindan rashq qiladi (ayollar – 31,1 %, erkaklar – 40,5 %), 27 % – qaynona va kelin xuddi ona-boladek (ayollar – 36,2 %, erkaklar – 14,2 %), 23 % – kelin qaynonasini hurmat qilmaydi (ayollar – 15,5 %, erkaklar – 33,3 %), 19 % – hozirgi kelinlar yomon tarbiya ko'rgan, barcha muammo shundan (ayollar – 22,4 %, erkaklar – 14,2 %), 3 % – kelin oilaning boshqa a'zolariga nisbatan yomon munosabatda (ayollar – 5,2 %, erkaklar – 0 %). Umumiy hisobda qaynona bilan kelinlar o'rtasidagi munosabatlar har xil sabablarga ko'ra yaxshi emas. Bunda ko'pchilik birinchi o'rinda qaynonaning aybini ko'rsatishadi. Boshqa sharoitlarda yashagan kattalar, o'zlarining hayotlarini yoshlarga o'tqazishga harakat qiladilar va kelindan bir paytlar o'zlaridan qaynanalari talab

qilishgan narsani talab qiladilar. Bugungi kunda Toshkentda ota-onalar va kelin-kuyovlar o'rtasidagi ziddiyatlar asosan ota-onaning kelin-kuyovlarga nisbatan o'ta talabchanligidan, va bu talabchanlik ko'pincha noxolis bo'lishidan kelib chiqadi. O'z navbatida yoshlar ham o'rnashib qolgan stereotiplar asosida kattalarni tushunishni, ularga yon bosib turish kerakligini, tajribalariga ham ishonish kerakligini bilmaydilar. “Kuyov – yov”, “qaynona hech qachon kelinini o'z qizidek ko'rmaydi”, “qaynona va kelin yomon munosabatda bo'lishadi”, degan stereotiplar hali yoshlar turmush qurmasdan oldin shakllanadi. Bunday fikrlagan yoshlar turmush qursalar, qaynota-qaynonaning har bir ishini o'zlariga salbiy qabul qilaveradilar. Bunda ularni ota-onalari qanday tarbiyalaganlari, oilaviy hayotga qanday tayyorlaganlari muhim o'ringa ega.

O'z navbatida er-xotinlar orasida necha yosh farq qilishi ham muhim ijtimoiy-demografik omil hisoblanadi. XX asrning oxirlaridan bugungi kungacha o'zbek oilalarida er-xotinlar o'rtasida asosan 1–4 yoshgacha farq qiladi. Er-xotin o'rtasida 10 yoshgacha bo'lgan farqni uchratish o'zbeklar uchun hayratla-narli emas. Ammo yosh o'rtasidagi farq undan kattalashib borsa, ko'pchilik buni oddiy hol sifatida qabul qilolmaydi. Bunday nikohlar nisbatan kam uchraydi, lekin oxirgi paytlarda ularning soni ancha ortib qoldi. Shu bilan birgalikda, o'zbeklarda hali ham ayolning erkakdan yoshi katta bo'lishiga engil qarashmaydi va bu ota-onaning qarshilik ko'rsatishiga etarlicha asos bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida ijtimoiy-demografik omil bo'lmish millatning, dinning, ma'lumotning, kasbning, qaerdanlikning, ijtimoiy tabaqalarning o'xshashligi, bir-biridan farqiga qarab oilaning yo mustahkamligiga yo uning buzilishiga ta'sir ko'rsatadi. Toshkent o'zbeklarida ushbu omillar oilaning mustahkamligida quyi o'rinda turadi.

Husn masalasi ham oilani mustahkamlashda, qolgan omillarga nisbatan quyi o'rindan joy olgan bo'lsa ham, erkaklar uchun muhim omil hisoblanadi. Oilani mustahkamlashda va uning buzilishida husn birinchi o'rinda turmasa ham, u baribir ahamiyatli hisoblanadi.

Respondentlar javobidan oilaviy hayotga tayyorlik, oila bo'sh vaqtini birga o'tkazishi oilani mustahkamlovchi omillar sifatida quyi o'rindan joy olgan bo'lsa-da, ular muhim hisoblanadi.

Oilani mustahkamlashda Toshkent shahri o'zbeklari mahalla va qadriyatlar o'rnini eng oxirgi o'ringa qo'yishgan. Ammo ushbu omillarning o'rni ham kelindan qattiq talab qilishadi (ayollar – 43,1 %, erkaklar – 40,5 %), 35 % – qaynona o'g'lini kelindan rashq qiladi (ayollar – 31,1 %, erkaklar – 40,5 %), 27 % – qaynona va kelin xuddi ona-boladek (ayollar – 36,2 %, erkaklar – 14,2 %), 23 % – kelin qaynonasini hurmat qilmaydi (ayollar – 15,5 %, erkaklar – 33,3 %), 19 % – hozirgi kelinlar yomon tarbiya ko'rgan, barcha muammo shundan (ayollar – 22,4 %, erkaklar – 14,2 %), 3 % – kelin oilaning boshqa a'zolariga nisbatan yomon munosabatda (ayollar – 5,2 %, erkaklar – 0 %). Umumiy hisobda qaynona bilan kelinlar o'rtasidagi munosabatlar har xil sabablarga ko'ra yaxshi emas. Bunda ko'pchilik birinchi o'rinda qaynonaning aybini ko'rsatishadi. Boshqa sharoitlarda yashagan kattalar, o'zlarining hayotlarini yoshlarga o'tqazishga harakat qiladilar va kelindan bir paytlar o'zlaridan qaynanalari talab qilishgan narsani talab qiladilar. Bugungi kunda Toshkentda ota-onalar va kelin-kuyovlar o'rtasidagi ziddiyatlar asosan ota-onaning kelin-kuyovlarga nisbatan o'ta talabchanligidan, va bu talabchanlik ko'pincha noxolis bo'lishidan kelib chiqadi. O'z navbatida yoshlar ham o'rnashib qolgan stereotiplar asosida kattalarni tushunishni, ularga yon bosib turish kerakligini, tajribalariga ham ishonish kerakligini bilmaydilar.

“Kuyov – yov”, “qaynona hech qachon kelinini o‘z qizidek ko‘rmaydi”, “qaynona va kelin yomon munosabatda bo‘lishadi”, degan stereotiplar hali yoshlar turmush qurmasdan oldin shakllanadi. Bunday fikrlagan yoshlar turmush qursalar, qaynota-qaynonaning har bir ishini o‘zlariga salbiy qabul qilaveradilar. Bunda ularni ota-onalari qanday tarbiyalaganlari, oilaviy hayotga qanday tayyorlaganlari muhim o‘ringa ega.

O‘z navbatida er-xotinlar orasida necha yosh farq qilishi ham muhim ijtimoiy-demografik omil hisoblanadi. XX asrning oxirlaridan bugungi kungacha o‘zbek oilalarida er-xotinlar o‘rtasida asosan 1–4 yoshgacha farq qiladi. Er-xotin o‘rtasida 10 yoshgacha bo‘lgan farqni uchratish o‘zbeklar uchun hayratlanarli emas. Ammo yosh o‘rtasidagi farq undan kattalashib borsa, ko‘pchilik buni oddiy hol sifatida qabul qilolmaydi. Bunday nikohlar nisbatan kam uchraydi, lekin oxirgi paytlarda ularning soni ancha ortib qoldi. Shu bilan birgalikda, o‘zbeklarda hali ham ayolning erkakdan yoshi katta bo‘lishiga engil qarashmaydi va bu ota-onaning qarshilik ko‘rsatishiga etarlicha asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida ijtimoiy-demografik omil bo‘lmish millatning, dinning, ma‘lumotning, kasbning, qardanlikning, ijtimoiy tabaqalarning o‘xshashligi, bir-biridan farqiga qarab oilaning yo mustahkamligiga yo uning buzilishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Toshkent o‘zbeklarida ushbu omillar oilaning mustahkamligida quyi o‘rinda turadi.

Husn masalasi ham oilani mustahkamlashda, qolgan omillarga nisbatan quyi o‘rindan joy olgan bo‘lsa ham, erkaklar uchun muhim omil hisoblanadi. Oilani mustahkamlashda va uning buzilishida husn birinchi o‘rinda turmasa ham, u baribir ahamiyatli hisoblanadi.

Respondentlar javobidan oilaviy hayotga tayyorlik, oila bo'sh vaqtini birga o'tkazishi oilani mustahkamlovchi omillar sifatida quyi o'rindan joy olgan bo'lsa-da, ular muhim hisoblanadi.

Oilani mustahkamlashda Toshkent shahri o'zbeklari mahalla va qadriyatlar o'rnini eng oxirgi o'ringa qo'yishgan. Ammo ushbu omillarning o'rni ham.

2.2. Qalinni bekor qiluvchi odatlar

Mintaqada yuqoriga nisbatan quyi ijtimoiy qatlamlar ko'proq bo'lib kelganligi sababli qalinni bekor qiluvchi yoki uning miqdorini ma'lum darajada kamaytirishga qratilgan odatlar ibtidoiy davrdan to hozirgacha saqlanib qolgan.

Bulardan ibtidoiy jamoa tuzimning emirilishi davrida paydo bo'lgan qalinning bir turi kuyovning ishlab berishidir. Bunda matrilokal yashash qoldiqlari endi yangi sharoitda, odatda juda katta qalinni to'lash qiyin bo'lgani uchun vujudga kelayotgan yangi shakl bilan qo'shilib ketishi namoyon bo'lgan. Bizgacha u "kuch kuyov" yoki masxaralangan tarszda "kuchuk kuyov" odati sifatida etib kelib, qalin to'lashga qurbi etmagan yigitlar qizning otasinikida qalin o'rniga ishlab berishi kerak bo'lgan. Bunda kuyovning xizmati to'y va qldin xarajatini qoplagach, xotinini olib qaynotanikidan chiqib ketishi ham mumin. Hozirda bu odat, agarda alohida bir hollarda uchrab qolmasa, umuman olganda, yo'qolib ketgan.

"Ichkuyov" odati qirg'izlarda kuch kuyov, tojiklarda xonadomad, o'zbeklarda ichkuyov shaklida uchraydi. Bu odatga ko'rayu oilada bir necha qiz yoki bitta qiz bo'lib, o'g'il bo'lmagan hollarda kuyovga kelinning uyida yashash sharti bilan qiz berishgan. O'g'li bo'lmagan qizning ota-onasi qizini aqlli, mehnatkash yigitga erga berib, uni o'ziga mahram-ichkuyov o'g'il qilib olganlar, shu bilan birgalikda kuyov qizning uyiga xo'jalikni yurituvchi ishchi kuchi sifatida, i'ni xizmatga kelgan. Bunda ham qalin to'lanmagan, ashar kuyov kambag'al oiladan bo'lsa, to'y xarajatlari qizning ota-onasi zimmasiga tushgan. Ichkuyov bo'lish ko'proq nochor oila yigitlarga nasib etgan. Qalin to'lashga qurbi etmaslan uylangan ichkuyov umr bo'yi qizning otasinikida ishlagan va yashab qolgan, qaynotasining topshirig'i bilan, ko'rsatmasi, maslahati bilan ish

ko'rgan, ro'zg'orning barcha mas'uliyatli yumushlari uning zimmasiga tushgan.

Qalinning ko'pligi va ko'pincha uni to'lashga imkoniyatning yo'qligi qizni olib qochish odatini monogomiya va patrilokallikka o'tish davrida vujudga keltirdi, bu ish odatda qizning roziligi bilan bo'lardi. Bunday nikoh qurish usuli juda kam uchraydigan hodisa bo'lgan.²²

Undan tashqari "bel quda" yoki "ichquda" odatida ham qalin to'lanmagan. Bunda hali tug'ilmagan bolalar unashtirilgan bo'lib, to'yning qalinidan boshqa rasm-rusmlariga amal qilingan. Bel quda bo'lishda ikki qadrdon do'st homilador xotinlari qiz va o'g'il tug'ishsa. Do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlash uchun kelgusida quda bo'lishni niyat qiladi. Homilador ayollar qiz va o'g'il tug'ishsa. Sevinch bilan bir-birlarini quda deb atashadi.

Yana bir shunga o'xshash odat "Beshik quda" ("beshik ketdi", "beshikkerti", "quloq tishlar", "quloq tishdatar", "etak chartish", "etak yirtish", "sirg'a taqdi", "etakka soldi", "oyoq bog'latdi") deb nomlangan odatda qalin hajmi kam bo'lgan yoki umuman bo'lmagan. O'g'ilning otasi bolasi balog'atga etguncha xo'jalikka zarar etkazmay qalindan qutilib borishni, qizning otasi esa qalin hisobiga berlgan chorvadan foydalanishni nazarda tutgan.

Qalin to'lamaslikning yana bir yo'li mavjudeji. XIX asrning oxirlarida Farg'ona vodiysida agarda kuyov qiz tomonining to'yga ketadigan xarajatdarini o'z bo'yniga olsa. U holda qalin to'lanmagan. Bunday yo'l qalinning qiymati to'yning o'ziga ketadigan xarajatlardan baland bo'lgan hollardagina kuyovga qulay bo'lishi mumkin bo'lgan. Chunki u paytda qalinning miqdor to'yga ketadigan

²² Otaxo'jaev F.M, Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. T.. 1995,37-b.

sepga, xarajatlarga yo teng kelgan yo yaqin kelgan. Shuning uchun bunday odat keng tarqalmagan.

Shunday qilib xulosa qilishimiz mumkinki, yuqoridagi qalinni bekor qiluvchi odatlar, asosan, moddiy qiyinchilikda bo'lgan oilalarga ancha engilliklar yaratgan. Albatta, ba'zi odatlar (masalan. Belquda, beshik ketdi) nafaqat oilalarning moddiy qiyinchilikda bo'lganligi tufayli bajarilmagan. Lekin ko'p hollarda yuqoridagi odatlarga o'g'lini uylantirishga qiynalgan oilalar amal qilgan. Qalinning narxi hozirga kelib ancha tushib ketgan bo'lsada, bugungi kungacha saqlanib qolgan odatlarga odamlar endi qalindan qutilish tufayli amal qilmayapdi. Masalan, vodiylar aholisining asosiy qismi qalin berish odatiga mohiyatan amal qilmasa-da, qalinni bekor qiluvchi odatlarning ba'zilari hali ham saqlanib qolgan.

Nikoh zarurligi *fiziologik* va *ijtimoiy* omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, tibbiyotda insonning jinsiy hayot kechirishi tabiiy ehtiyojdan kelib chiqadi. Shunday ekan, insonning jinsiy hayotni barvaqt to'xtatishi tibbiyot tomonidan ma'qullanmaydi. Shu bois, din ham insonning bu tabiiy ehtiyojini hisobga olgan holda uni nikohga davlat etadi va shu bilan uni har xil buzilishlardan asraydi. Ikkinchidan, nikoh insonning farzandli va oilali bo'lish imkonini beradi, ya'ni nikoh insonning yolg'iz qolmaslik garovidir. Davlat ham nikohning ko'payishidan manfaatdor. Nikohning ko'payishi farzandli oilalarning ko'payishiga, u esa, o'z navbatida, insonlarning ko'payishiga olib keladi, ya'ni natijada davlat aholisi ko'payadi.

Nikoh har xil ko'rinishga ega. O'zbeklarda qadimdan nikohning bir necha turi mavjud bo'lgan. Bular: *qalinlik nikoh*, qalinni bekor qiluvchi odatlardan *bel quda*, *beshik ketdi*, *qarshi quda*, *kuch kuyov*, *ichkuyov*, shu bilan birgalikda *levirat*, *sororat* va boshqalardir.

Toshkentda bu odatlar XX asrning 2-yarmida ancha kamaygan. Ular hayotda shunchalik darajada kam uchraydilarki, bu odatlarni Toshkent shahrida yo'qolib ketdi, desa ham bo'ladi. Toshkent shahrida *beshek ketti* odati 1999–2000 yillarda sanoqli oilada uchratildi, xolos. Bu ham oilalarning yaqinligi yoki qarindoshligi bo'sdir³⁸.

Bugungi kunda Toshkent shahrida *ichkuyov* bo'lish kuzatiladi. Ammo bunday hollar qalinni to'lolmaganlikdan emas, balki kuyov moddiy yordamga muhtoj bo'lganda yoki kelin ota-onasining o'g'li bo'lmaganligi sabab uchraydi³⁹.

Bugungi kunda yuqorida aytilgan nikoh shakllaridan eng ko'p saqlanib qolgani bu – *qalinli nikoh* turidir. Barchaga ma'lum, qadimdan O'rta Osiyo xalqlarida kelin olishning dastlabki shartlaridan biri qalin berish bo'lgan, lekin uning ijrosi hamma joyda ham bir xilda bo'lmagan. Hozirda bu odat o'tmishdagidan farqli o'laroq rasmiy tus olgan. Xalq qalinga faqat urf-odatlardan biri deb qarab, o'tmishdan qolgan meros sifatida unga amal qiladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy o'zgarishlar natijasida hozirda insonlarning nikohga bo'lgan munosabatlari o'zgargan. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunga kelib nikohning yangi shakllari paydo bo'lgan. Ilmiy tadqiqotlar natijasida biz bularni quyidagi toifalarga bo'lgan holda ko'rsatmoqchimiz: *an'anaviy nikoh, diniy nikoh, qonuniy yoki yuridik rasmiylashtirilgan nikoh, fuqarolik nikohi*.

Davlat to'ntarishiga qadar (1917) o'zbeklarda faqat shar'iy nikoh tan olingan. Sobiq Sovet hukumati diniy nikohni bekor qildi. SSSRda faqat fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlarida rasmiylashtirilgan nikoh tan olingan (FHDYo). Bu nikoh avval shaharlarda, keyin qishloqlarda keng ravishda tarqaldi. Ammo, shu

bilan birgalikda yashirincha diniy nikohdan ham o'tilaverilardi, qaysi bugungi kunda machitda, ko'pincha qizning uyida ochiq bajarilmoqda. Ham davlatga, ham islom diniga ma'qul keladigan bu nikohni jamiyat ham tan olgan. XX asrning ikkinchi yarmidan FHDYoda nikohni yuridik tasdiqlash bilan bog'liq an'analar shakllangan. Yoshlar FHDYodan keyin shaharning ko'rkam (asosan, haykallar) joylarini ziyorat qilishar, so'ng kichik bir ziyofat qilishar edi. Bu odatning kichik bir to'y darajasigacha borishi oilalarga og'irlik qila boshladi. Shu sababli davlat FHDYoda nikohdan o'tishni nikoh to'yi marosimining o'zida bajarishga ruxsat berdi. Bugungi kunda an'anaviy nikoh – bu diniy *nikoh* o'qitilgan, davlat tomonidan yuridik tasdiqlangan, jamiyat tomonidan tan olingan nikohdir. U o'zbeklarda eng asosiy nikoh shakllaridan biri bo'lib qoldi. O'zbeklarning asosiy qismi aynan shu nikoh turida yashaydi.

Shu bilan birgalikda, dindor (dunyoviy hayot o'rniga, asosan islom qoida-qonunlari bilan yashaydigan) o'zbek oilalarda nikoh shariat asosida quriladi. Shuningdek, diniy nikoh (mullaning *nikoh* o'qishi bilan kifoyalangan shar'iy nikoh) ikkinchi xotin olganda ham uchraydi. Bunda nikoh sir tutiladi va faqat ma'lum bir yaqin odamlar guruhi (yaqin bo'lmasligi ham mumkin) nikohdan xabardor bo'ladi. G'arbona, “zamonaviy” qarashga ega yoki ateistligi bilan o'zbeklarning musulmon qismidan ajralib turadigan insonlarda, aralash nikohlarda (ikki xil din vakillarida) va aralash nikoh farzandlarida faqat FHDYoda qonuniy, yuridik rasmiylashtirilgan, ammo *nikoh* o'qitilmagan nikoh turi uchraydi. Bunday nikoh, diniy nikohga nisbatan, shaharlarda, asosan Toshkent shahrida uchraydi. O'zbeklar bunday nikohlarni ma'qullamaydilar, sababi o'zbeklar uchun *nikohsiz* qurilgan oila gunoh hisoblanadi.

Fuqarolik nikohi na davlat tomonidan rasmiylashtiriladi, na din vakillari tomonidan *nikoh* o'qitiladi. Bunday nikohni bir-birini sinash yo bir-birining erkinliklarini cheklab qo'ymaslik, yo bo'lmasa din va davlat tomondan yuklatiladigan majburiyatni o'z bo'yniga olmaslikni xohlovchi insonlar quradilar. O'zbeklarda fuqarolik nikohi, asosan shaharlarda uchraydi. Bularning ko'pchiligi Toshkent shahriga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, XX asr oxirlari – XXI asr boshlarida ko'p oilalar nikohdan FHDYoda yuridik rasmiylashtirish va diniy nikoh o'qitish orqali o'tganlar. U eng asosiy nikoh shakllaridan biri bo'lib qolishi sababli, bu nikoh turi an'anaviy bo'lib qoldi. Ammo shu bilan birgalikda, o'zbeklarda yangi nikoh shakllari ham paydo bo'ldi, xususan, qonuniy, fuqarolik va rasmiylashgan diniy nikohlar. Biroq ular o'zbeklarda an'anaviy nikohga nisbatan kam uchraydilar.

ravishda tarqaldi. Ammo, shu bilan birgalikda yashirincha diniy nikohdan ham o'tilaverilardi, qaysi bugungi kunda machitda, ko'pincha qizning uyida ochiq bajarilmoqda. Ham davlatga, ham islom diniga ma'qul keladigan bu nikohni jamiyat ham tan olgan. XX asrning ikkinchi yarmidan FHDYoda nikohni yuridik tasdiqlash bilan bog'liq an'analar shakllangan. Yoshlar FHDYodan keyin shaharning ko'rkam (asosan, haykallar) joylarini ziyorat qilishar, so'ng kichik bir ziyofat qilishar edi. Bu odatning kichik bir to'y darajasigacha borishi oilalarga og'irlik qila boshladi. Shu sababli davlat FHDYoda nikohdan o'tishni nikoh to'yi marosimining o'zida bajarishga ruxsat berdi. Bugungi kunda an'anaviy nikoh – bu diniy *nikoh* o'qitilgan, davlat tomonidan yuridik tasdiqlangan, jamiyat tomonidan tan olingan nikohdir. U o'zbeklarda eng asosiy nikoh shakllaridan biri bo'lib qoldi. O'zbeklarning asosiy qismi aynan shu nikoh turida yashaydi.

Shu bilan birgalikda, dindor (dunyoviy hayot o'rniga, asosan islom qoida-qonunlari bilan yashaydigan) o'zbek oilalarda nikoh shariat asosida quriladi. Shuningdek, diniy nikoh (mullaning *nikoh* o'qishi bilan kifoyalangan shar'iy nikoh) ikkinchi xotin olganda ham uchraydi. Bunda nikoh sir tutiladi va faqat ma'lum bir yaqin odamlar guruhi (yaqin bo'lmasligi ham mumkin) nikohdan xabardor bo'ladi.

G'arbona, "zamonaviy" qarashga ega yoki ateistligi bilan o'zbeklarning musulmon qismidan ajralib turadigan insonlarda, aralash nikohlarda (ikki xil din vakillarida) va aralash nikoh farzandlarida faqat FHDYda qonuniy, yuridik rasmiylashtirilgan, ammo *nikoh* o'qitilmagan nikoh turi uchraydi. Bunday nikoh, diniy nikohga nisbatan, shaharlarda, asosan Toshkent shahrida uchraydi. O'zbeklar bunday nikohlarni ma'qullamaydilar, sababi o'zbeklar uchun *nikohsiz* qurilgan oila gunoh hisoblanadi.

Fuqarolik nikohi na davlat tomonidan rasmiylashtiriladi, na din vakillari tomonidan *nikoh* o'qitiladi. Bunday nikohni bir-birini sinash yo bir-birining erkinliklarini cheklab qo'ymaslik, yo bo'lmasa din va davlat tomondan yuklatiladigan majburiyatni o'z bo'yniga olmaslikni xohlovchi insonlar quradilar. O'zbeklarda fuqarolik nikohi, asosan shaharlarda uchraydi. Bularning ko'pchiligi Toshkent shahriga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, XX asr oxirlari – XXI asr boshlarida ko'p oilalar nikohdan FHDYda yuridik rasmiylashtirish va diniy nikoh o'qitish orqali o'tganlar. U eng asosiy nikoh shakllaridan⁷ biri bo'lib qolishi sababli, bu nikoh turi an'anaviy bo'lib qoldi. Ammo shu bilan birgalikda, o'zbeklarda yangi nikoh shakllari ham paydo bo'ldi, xususan, qonuniy, fuqarolik va rasmiylashgan diniy nikohlar. Biroq ular o'zbeklarda an'anaviy nikohga nisbatan kam uchraydilar.

XULOSA

Shunday qilib, biz qalin va u bilan bog'liq odatlarni ko'rib chiqdik. Qadimgi O'rta Osiyo xalqlarida jumladan, kelin olishning dastlabki shartlaridan biri qalin berish odati bo'lgan. Lekin uning ijrosi hamma joyda ham bir xilda bo'lmagan. Qalinning ijrosi to'lanadigan mablag' soni va sifati hudud va tumanlar aholisi ijtimoiy ishlab chiqarishiga bog'liq bo'lgan. Nikoh to'yidan, kelinni kuyov xonadoniga olib kelishgacha bo'lgan davrda kuyov tomonidan kelin uchun to'lanadigan pul yoki mol (chorva) "qalin" nomi bilan atalgan. Qalin keyingi yillarda o'z mohiyatiga ko'ra, kelinga to'lnadigan to'lov vositasi emas, balki uni hozirda "kuyov sovg'asi", "sut haqi", to'y kompensatsiyasi deb zamonaviylashgan shaklda namoyon etmoqdalar. Aslida qalin islomgacha turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan odatlardandir.

Bizga ma'lum bo'ldiki, qalin har xil ko'rinishga ega bo'lib, o'tmishda to'yning bo'lish yo bo'lmasligini hal etgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib u o'zbeklarda faqat rasmiyatchilik uchun bajarilmoqda. O'tmish bilan solishtiradigan bo'lsak, uning bugungi kunda qiymati va ahamiyati tushib ketgan.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, oila mustahkamligi oila a'zolarining doimo birgalikdagi harakatlari bilan amalga oshadi. Sababi buzilgan oilani tiklashdan ko'ra, buzilishning oldini olish osonroq. Oilaning mustahkamligi uchun kurash eng avvalo, uning buzilishiga olib keladigan janjal va nizolarning kelib chiqish sababini aniqlashni ko'zlaydi.

Tadqiqot natijalari bir qator **taklif va tavsiyalarni** berish imkonini beradi. Xususan:

yoshlarning nikohgacha bo'lgan davriga, oila-nikoh munosabatlarining etnopsixologik aspektini o'rganishga ko'proq e'tibor bermoq lozim;

oil va nikohni alohida bir aspektda emas, boshqa fanlar bilan kompleks o'rganmoq maqsadga muvofiq;

oil-nikoh munosabatlarini o'rganib, etnologlarga yoshlarning oilaviy hayotlaridan qoniqmaslik va nizolarning sabablariga, er-xotinlarning umumiy sog'ligi va jinsiy munosabatlarini tadqiq etishga ko'proq e'tibor berish tavsiya etiladi;

shuningdek, bir-birlariga o'rganib, ko'nikib ketishlari uchun qulay sharoit yaratish maqsadida oilada yoshlar o'rtasidagi guruhlarni, ayniqsa qaynona-kelin munosabatlarini o'rganish ham muhim hisoblanadi;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari yuqori sinf o'quvchilari va kasb-hunar kollejlari hamda akademik litseylar talabalari uchun "Sog'lom turmush asoslari" darsi tarkibidagi oila va nikoh mavzulariga ajratilgan soatlarini ko'paytirish tavsiya etiladi;

ommaviy axborot vositalarida oila mavzusiga oid ko'rsatuvlar, nashrlar ko'proq olib borilishi maqsadga muvofiq ish bo'lar edi.

Hayotiy zarurat sifatida qalin berish odati turlicha ko'rinish va turli darajada hozirgi davrda ham O'zbekistonda mavjud. Ammo ba'zi joylarda u tiklanmaydigan darajada yo'q bo'lib bormoqda. Hali ham amalda bo'lgan joylarda esa mentalitet, an'ana, stereotip, iqtisodiy omillarga ko'ra saqlanib qolgandir.

Biz ushbu monografiyada qalin berish odatiga har tomonlamayondashib, uning barcha qirralarini ochib berishga harakat qildik. Ammo oxirgi xulosani, qalimga bo'lgan munosabatni baribir har bir inson o'zi chiqaradi. Sababi, bizga hech qachon ma'qul bo'lmagan ish, boshqa birovga ma'qul kelishi mumkin, bu

bilan bizning fikrimizga qo'lishmaydigan insonlarni tanqid qilib, ularni faqat qoralashimiz noto'g'ri bo'ladi. Masalan, agar biz qalinni oqlab, uning amalda qo'llanilishini zarurat, deb chiqsak,, bunga qo'shilmaydiganlar, qarshi chiqadiganlar, albatta bo'ladi.

Bu bilan aytmoqchimizki, o'zimizning fikr va g'oyalarimizni zo'rlab insonlar ongiga singdira olmaymiz. Biz faqat har bir masalaga ob'ektiv yondashib, uning har bir qirralarini ilmiy isbotlash orqali ochib berishga harakat qilishimiz zarur.

Mustaqillik yillarida xalqimizning tarixiy chuqur va rostgo'ylik asosida o'rganish hamda qadimiy, milliy qadriyatlarimizning tiklanishiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, «Buyuk madaniyatimiz tomirlariga qarab, o'tmishdagi boy an'analarimizni yangi jamiyatdagi qurilishiga tadbqiq qilmog'imiz kerak»¹. Har bir riovjlangan madaniyatli xalqning o'z tili, urf- odati, adabiyoti, asori- atiqalari, moddiy va ma'naviy ne'matlari bo'ladi. O'zbeki xalqi ham dunyodagi eng qadimiy tarixga, madaniyatga ega bo'lgan xalq sanaladi. Bu qadimiy madaniyatni o'rganish va keyingi avlodlarga etkazish bizning burchimizdir.

E'tirof etish mumkinki, bugungi kunda unut bo'lib borayotgan xo'jalik sohasi bilan bog'liq turli udumlar, amallar va usullarni qayta joriy qilish respublikamiz xalq xo'jaligi uchun ijobiy natijalar beradi degan fikrdamiz.

Demak, oila mustahkamligi abadiy berilmagan, u doimo oila a'zolarining birgalikdagi harakatlari bilan amalga oshadi. Yoshlar nikohgacha oilaviy hayotdan, er-xotin munosabatlaridan va umuman, nikohdan ko'p narsani kutadilar, bo'lajak umr yo'ldoshini o'zlari bilmagan holda ideallashtirib yuboradilar. Turmush qurgandan so'ng natija kutilgan holatni oqlamaydi. Shu sabab umr yo'ldoshiga

nisbatan ko'ngilning sovishi paydo bo'ladi. Bu ongli ravishda emas, balki ong ostida bo'ladigan jarayon hisoblanadi. Shu sababli yoshlar oiladagi nizolarning, to'qnashuvlarning va umuman, oilaviy hayotdan qoniqmaslikning asl sababini bilmaydilar. O'z navbatida shu narsa ma'lum bo'ldiki, yoshlar oilaviy hayot qurganlaridan so'ng, umr yo'ldoshini o'z holiga tashlab qo'yadilar. O'zbeklarda asosiy e'tibor uy-xo'jalik ishlariga qaratilib, er-xotin o'rtasidagi munosabatlarga unchalik darajada e'tibor berilmaydi. Er-xotinning har biri o'z vazifasini o'zi qilsin, umr yo'doshim meni baxtli qilsin, deb oila mustahkamligi ustida harakat qilmaydilar. Shuni aytish kerakki, o'zbeklar yuqorida ko'rsatilgan omillarning barchasini muhim deb biladilar, lekin shulardan xarakterologik omillar oilani mustahkamligida eng muhim o'rinda turadi. Ko'pchilik o'zbeklarda oilani mustahkamligini farzandlar ushlaydi, degan stereotip ushbu tadqiqotda xarakterologik omillardan keyingi o'rinda turishini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

PREZIDENT ASARLARI:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, «O'zbekiston» - 1998 y.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Toshkent, «O'zbekiston»- 1995 y.
3. Karimov I.A. Xalqqa xizmat qilish- oliy baxt. «Sirdaryo haqiqati» gazetasi. 1999 yil 12 dekabr. №100.

UMUMIY ADABIYOTLAR:

1. Аминов Б. Формирование население Голодный Степи (конец XIX- 60е года XX в). Диссертация на соискание ученой сетепени кандидата исторических наук. Ташкент, 1970 г
2. Аминов Б. К вопросу формирование население Голодной Степи за годы соверской власти. // Очерки по истории хозяйства народов Среденей Азии и Казахстана. Изд.во Наука, Ленинград- 1973 г.
3. Ashirov A. Samoviy tulporlar. G'G' Fan va turmush, №3. 2001 y.
4. Басилов В.Н. Хозяйство западных туркменов ямудов дореволюционный период и связзанные сними обычаи и

- верование. // Очерки по истории хозяйства народов Средней Азии и Казахстана. Изд.во Наука- 1973 г.
5. Батраков В.С. характерные черты сельского хозяйства Ферганской долины в период Кокандского ханства.// Ташкент, СГУ. Вып 2. Гумм.Наук. Кн8. История. 1955 г.
 6. Богоданов М.И. О классификации жанров киргизского фольклора. // Труды Киргизского Академии Наук. Фрунзе- 1943 г.
 7. Богомоллов К.А. Следы древнегот культа воды у таджикиов.// Изд.во общественных наук А.Ню Турсунзаде. Сталинабад- 1952 г.
 8. Грицина А.А, Археологические помятники Сырдарьинской области. Ташкент, «ФАН»- 1992 г.
 9. Голодная степь: 1867- 1917. История края в документах, 1981 г.
 10. Голодная Степь: Иванов И.А. Древнейший арык от Сырдарьи до Бухары. Москва- 1981 г.
 11. Доклад о развитие социально- экономическиги развитие Сырдарьинской области. 1985- 1987 г. Управление статистики Сырдарьинской области. Г Гулистан- 1987г.
 12. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi.Toshkent- 1994 y.
 13. Джаббаров И.М. Из истории техники и культуры земледелии южного Хорезма. // История материальной культуры Узбекистана. Вып 2. Ташкент- 1961 г.
 14. Ibragimov N. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. Toshkent- 1993y.
 15. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. Москва, Наука- 1976 г.

16. Кармышева Б.Х. Этнографические очерки Узбекского сельского населения. Москва, Наука- 1969 г.
17. Кармышева Б.Х. Узбеки Локайцы южного Таджикистана. Вып 1. Сталинабад. Изд.во Акад.НаукюТадж.ССР. Сталинабад- 1954 г.
18. Кармышева Б.Х. Этнические и территориальные группы население северо- восточной части Кашкадарьинской области Узбекской ССР. // Краткие сообщения Института этнографии АНСССР. Москва- 1960 г.
19. Кармышева Б.Х. Пищерова Б.М. Материалы этнографического обследование таджиков. Нуратинского хребта. // Материалы и исследование по этнографии и антропологии. СЭ. 1964г. №1.
20. Кисляков Н.А. Патриархально- феодальные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX-начало XX в.// М.Л. 1962 г.
21. Mirzaev N. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. Toshkent «FAN»- 1972 y.
22. Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysi sug'orilishi tarixi(Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha). Toshkent, «FAN»- 1972 y.
23. Muhammadjonov A.R. O'zbekistonning qadimgi gidrotexnika inshootlari. Toshkent- 1977 y.
24. Мулладжанов И.Р. Народонаселение Узбекистанской ССР. Ташкент- 1967 г.
25. Мулладжанов Н.Р. Демографические развития Узбекской ССР. Ташкент- 1983 г.
26. Мухиддинов И. Особенности традиционного земледельческого хозяйства припамирских народностей в XIX начало XX веков. Душанбе, «Дониш»- 1984 г.

27. Mussaqlulov A. O'zbek xalq lirikasi. Toshkent- 1995 y.
28. Материалы к историко- этнографическому атласу Средней Азии и Казахстана. Изд.во Акад.Наук.М-Л. 1961г.
29. Махмуд Саттор. Ўзбек удумлари. Тошкент- 1963 й.
30. Ота- Мирзаев О, Гентшке В, Муртазаева Р. Узбекистан: многонациональный историко- демографические аспект. Ташкент, Изд. Медицинский литературы имени Абу Али ибн Сина – 1998 г.
31. Основные показатели развития народного хозяйство Сырдарьинской области за 1980- 1989 г. Сырдарья- 1990 г.
32. Поляков С.П. Хозяйство население Средней Азии и Казахстана. Изд.во Московского Университета- 1980г.
33. Рахимов М.Р. Земледельные бассейны райолна Хингоу до революционный период. Сталинабад- 1953 г.
34. Salimov T.O'. O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari etnografiyasidan diplom yozish borasida ba'zi bir ko'o'rsatmalar. Toshkent- 1990 y.
35. Саримсоқов С.П. Культ животных в религиях. Москва- 1982 г.
36. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. Toshkent- 1986 y.
37. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. Москва- 1990г.
38. Толстов С.П. Народы Средней Азии и Казахстана. I- II т. Москва- 1962 г.
39. Toshev X. Zarafshon vodiysi chorvadorlarining turmushi va madaniyati.(XIX oxiri- XX asr boshlari) Avtoreferat. 1987 y.
40. Токарев С.А, Ранние формы религии. Москва- 1990 г.
41. Фрезер Дж. Золотая ветвь. Москва- 1986 г.
42. Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. Изд.во ФАН. Ташкент- 1974 г.

43. Шаниязов К.Ш. Узбеки карлуки. Ташкент, «ФАН»- 1964 г.
44. Шаниязов К.Ш. Отгонное животноводство у узбеков // Очерки по истории хозяйств народов Средней Азии и Казахстана.Т- 1976 г.
45. Шаниязов К. Общинное землепользование в селении Каллык. Ташкент- 1984 г.
46. Шаниязов К.Ш. Традиционные игры и развлечения узбеков отражающие быт скотоводов (конец XIX- начало XX в). // Всесоюзная сессия, посвященная итогам полевых этнографических и антропологических исследований. 1976-1977г. Тезиси и доклады. Ереван- 1978.
47. Shoniyozov K.O'zbek xalqining etnik shakllanish jarayoni. Toshkent- 2001 y.
48. Шахназаров .Сельское хозяйство в Туркестанском крае. СПб- 1988.
49. Qudrtov S. Sardobalar o'lkasi.Toshkent, «FAN» - 2002 y.
50. G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. (qadimgi zamondan hozirgi kungacha). T.UzSSR. Fanlar Akademiyasi Nashriyoti- 1959 y.
51. G'ulomov Ya.G'. Qadimgi madaniyatimiz izlaridan. T.O'zSSR.Fan.Akad.- 1960 y.

ARXIV MA'LUMOTLARI:

1. IF1.op.11.ed.xr.429.
2. IF1.op.6 ed.Xr.1.
3. F.18.op.1.ed.Xr.6547.
4. F.18.op.1.ed.Xr.10625.
5. F.658.op.3.d1.1217.
6. F.658.op.op.3.d.4.168.d.17,199.100.
7. F.I..21.op.1.ed289.
8. F.I.I.op.1.d.25347.

Ilova №1

AXBOROTChILAR RO'YXATI

Sirdaryo viloyati Guliston tumani

№	F I O	Tug'ilgan sanasi
1	Alimamedov Sh.	21.04.1938.
2	Xusanboev L.	19.09.1928.
3	Bekmurodov A.	01.03.1931.
4	Qulahmedov M.	16.07.1937.
5	Axmadjonov M.	04.05.1932.
6	Izomiddinov R.	13.05.1935.
7	Abdusamatov P.	09.12.1937.
8	Pulatjonov D.	04.05.1929.
9	Salomov A.	09.11.1934.
10	Abdurasulov M.	26.04.1936.
11	Begimqulov U.	31.06.1942.
12	Palvonov R.	22.12.1932.

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani

N ^o	F I O	Tug'ilgan sanasi
1	Norchaev F.	16.02.1939.
2	Xolboev Ch.	28.06.1928.
3	Vaxobov L.	02.05.1941.
4	Bobonorov M.	30.12.1935.
5	Muqimov T.	22.06.1943.
6	Dadaboev S.	14.08.1940.
7	Sulaymonov X.	05.08.1932.
8	Fozilxo'jaev Sh.	09.01.1929.
9	Yarashev O.	28.03.1943.
10	Polvonov I.	05.06.1937.
11	Muqimov.P.	04.12.1936.
12	Mamasodiqov.J.	31.07.1944.

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani

№	F I O	Tug'ilgan sanasi
1	Umirov Ch.	24.06.1935.
2	Marqaboev F.	29.11.1941.
3	Sharifxonov D.	13.05.1935.
4	Yo'ldoshev M.	16.05.1945.
5	Sharipov J.	02.04.1939.
6	Buronov D.	27.12.1946.
7	Bobojonov Ya.	16.08.1941.
8	Mamatkarimov L.	04.06.1929.
9	O'rinov T.	16.09.1933.
10	Nurillaev D	24.11.1938.
11	Ramazonov P.	27.02.1943.
12	Lochinov Sh.	19.04.1942.

Sirdaryo viloyati Xovos tumani

N ^o	F I O	Tug'ilgan sanasi
1	Farmonov A.	23.04.1937.
2	Dadajonov .	31.05.1936.
3	Ochildiev Yo.	26.08.1946.
4	Rayimqulov N.	17.11.1929.
5	Polvonniyozov U.	09.01.1938.
6	Shukurov.B.	14.02.1935.
7	Rayimov.O.	05.09.1948.
8	Normuminov.F.	28.06.1929.
9	Aslonov R.	03.08.1941.
10	Begaliev J.	05.11.1932.
11	Xudoyorov V.	19.07.1942.
12	Shamsiev M.	10.04.1932.





